



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MAMATKULOV OYBEK AXATOVICH

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti



A'zo: ABDUVALIYEVA O'G'ILJON SHUXRAT QIZI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1161
Xulosa sanasi	20.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy. Guvohnoma: MAS № 0000252, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60230100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000252, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60230100 – Philology and Language Teaching: Pashto
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60230100 – Филология и обучение языкам (язык пушту)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Filolog, sharq va g'arb tillari fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy hujjatlar hamda ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlashga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida Termiz davlat universitetida "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro ekspertiza dastur zamonaviy ta'lim talablari hamda xalqaro standartlar asosida shakllantirilganini tasdiqlagani aniqlandi. Xususan, Pokistonning nufuzli oliy ta'lim muassasasidan jalb etilgan ekspert tomonidan ta'lim dasturiga ijobiy xulosa berilgani qayd etildi. Kam tarqalgan xorijiy til yo'nalishi bo'yicha ekspertiza jarayoniga tilning tabiiy muhitiga ega mamlakat mutaxassisining jalb etilgani ta'lim dasturining mazmuni, sifat darajasi va xalqaro talablarga muvofiqligini baholashda muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Shuningdek, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yilgani hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan ta'lim dasturi, malaka talablari, o'quv reja, fan sillabuslari hamda ta'lim dasturining mazmuniga oid hujjatlar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim dasturi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi, malaka talablari hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va o'quv yuklamasi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgani, o'quv natijalari va kompetensiyalar ta'lim dasturining maqsadlari

bilan uzviy bog'langanligi qayd etildi. O'zbekistonda pushtu tili bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning mintaqaviy hamkorlik, xalqaro aloqalar, diplomatiya va ilmiy-madaniy hamkorlikni rivojlantirishdagi strategik ahamiyati alohida e'tirof etildi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Filolog, sharq va g'arb tillari fani o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi berilishi uning filologiya, tarjimonlik hamda pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishini ta'minlashi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan o'quv natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan o'quv rejalari, fan dasturlari (sillabuslar), baholash tizimiga oid me'yoriy hujjatlar hamda o'quv jarayonini tashkil etishga doir materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv reja va fan dasturlari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv, Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda xalqaro ECTS va ISCED mezonlari asosida shakllantirilgani aniqlandi. O'quv hujjatlarining xalqaro ECTS va ISCED tasniflari bilan uyg'unlashtirilgani ta'lim dasturining xalqaro qiyoslanuvchanligini ta'minlash, akademik mobillikni rivojlantirish hamda bitiruvchilarning xalqaro ta'lim makonidagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Shuningdek, o'quv natijalarini baholash mezonlarining shaffofligi va xolisligi hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlovchi ichki me'yoriy mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda talabalar faoliyatini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni qabul qilish, ularning akademik harakatini boshqarish hamda qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari va oliy ta'lim sohasidagi zamonaviy talablar asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabul mezonlari va tartiblarining ochiq e'lon qilinishi, apellyatsiya mexanizmlarining belgilangan tartibda joriy etilgani ta'lim jarayonining shaffofligi va

adolatligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Kam tarqalgan xorijiy til yo'nalishi bo'yicha abituriyentlarni jalb etish, kasbiy yo'naltirish va ular bilan maqsadli ishlash mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi ta'lim dasturining barqaror rivojlanishi hamda malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda inson resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimiga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar, o'quv-yordamchi, texnik va boshqaruv xodimlari tarkibi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, malaka talablari hamda o'quv yuklamalari asosida shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning soni, malakasi va mutaxassisligi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli ekani qayd etildi. Pushtu tili yo'nalishida professor-o'qituvchilarning yuqori til kompetensiyasiga ega bo'lishi, asl manbalar bilan ishlash tajribasi va zamonaviy filologik yondashuvlarni qo'llashi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekani ta'kidlandi. Shu bilan birga, ta'lim dasturining xalqaro salohiyatini yanada oshirish maqsadida pushtu tili sohibi bo'lgan mutaxassislar va xorijiy hamkorlar bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni izchil kengaytirish tavsiya etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda mavjud moddiy-texnik infratuzilma holati o'rganildi. Tahlillar natijasida 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli ta'lim muhiti shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonida zamonaviy o'quv auditoriyalari, til xonalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hamda elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanilayotgani qayd etildi. Shu bilan birga, kam tarqalgan xorijiy tillarni o'qitish xususiyatidan kelib chiqib, pushtu tili bo'yicha darsliklar, ilmiy adabiyotlar, lug'atlar va autentik o'quv materiallari fondini muntazam boyitib borish, shuningdek, til laboratoriyalari va o'quv xonalarini zamonaviy didaktik vositalar bilan bosqichma-bosqich takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur tavsiyalar ta'lim

dasturining amaliy imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi hamda dastur sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Pushtu tili bo'yicha o'quv adabiyotlari va lug'atlar fondini boyitish tavsiya etiladi.
- ✓ Til sohibi mutaxassislar bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Pushtu tilidagi adabiyotlar, lug'atlar va til xonalari bazasini boyitish.
- ✓ Til sohibi mutaxassislar va xorijiy hamkor universitetlar bilan aloqani rivojlantirish.
- ✓ Abituriyentlar bilan maqsadli ishlash mexanizmlarini kuchaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 60230100 – "Filologiya va tillarni o'qitish (pushtu tili)" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks o'rganildi. Tahlillar davomida ta'lim dasturi bo'yicha Pokistonning nufuzli oliy ta'lim muassasasi eksperti ishtirokida xalqaro ekspertiza o'tkazilgani va ijobiy xulosa olingani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv reja va fan dasturlari xalqaro ECTS va ISCED mezonlari bilan uyg'unlashtirilgan. Talabalarni qabul qilish, ularning akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonini tashkil etish amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq yo'lga qo'yilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturining o'quv yuklamasi va malaka talablaridan kelib chiqib shakllantirilgan,

moddiy-texnik, axborot-resurs va raqamli ta'lim infratuzilmasi esa dastur ehtiyojlarini ta'minlash imkonini beradi. O'rganish jarayonida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining sifatini yanada oshirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, uning amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi va MUVOFIQ deb baholanadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

